



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 3-sentabr, chorshanba,
101 (24.127)-son

O'zbek xalq
maqoli

Baraka -
ko'pchilikda

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARI O'QUVCHILARI VA USTOZ-MURABBIYLARIGA

**Qadrlı farzandlarim!
Hurmatli ustoz va murab-
biylar!**

Muhtaram ota-onalar!

Avvalo, siz, azizlarni yur-
timizdagi 10 mingdan ziyod
maktablarda O'zbekiston
mustaqilligining 34 yillik
bayramiga uyg'un holda
o'tayotgan Bilimlar kuni bi-
lan chin qalbidan samimiy
muborakbod etaman.

Ushbu shukuhl ayyomda
"Birinci qo'ng'iroq"lar jarangi
ostida ilk bor maktab ostonasiga
qadam qo'yayotgan 720 ming-
dan ortiq o'g'il-qizlarimiz va
nabiralirimizni, ularning ota-on-
alarini alohida qutlab, o'zimning
eng ezgu tilaklarimni izhor etish-
dan g'oyat mamnunman.

Hech shubhasiz, keyingi yil-
larda butun yurtimiz kabi mak-
tablarimiz qiyofasi ham tubdan
o'zgarib, ular tom ma'noda Yan-
gi O'zbekiston timsoliga aylanib
borayotgani barchamizni chek-
siz quvontiradi. Chunki maktab
qanchalik obod va charog'on
bo'lsa, jamiyat hayoti shunchalik
farovon, mazmunli va ma'rifatli
bo'ladi.

Shu ma'noda, mamlakatimiz-
da ta'lim-tarbiya jarayonlari
tobora takomillashib borayot-
gani, har yili ko'plab yangi o'quv
maskanlari barpo etilayotgani,
ularning moddiy-texnik bazasi
mustahkamlanib, maktab ishi
umumxalq harakatiga aylan-
gani – keyingi davrda erishgan
eng katta yutuqlarimizdan biri,
desak, ayni haqiqatni aytgan
bo'lamiz.

Chindan ham, ko'zlari ilmga
havas va hayajon bilan chaqnab
turgan sizdek azmu shijoat-
li yoshlarimizga yuksalish va
kamolot, baxt va saodat eshikla-
rini ochib beradigan muqaddas
dargoh – maktablarimiz ravna-

qida biz xalqimiz, millatimizning
yorug' kelajagini ko'ramiz.
Bugungi kunda o'z oldimizga
qo'yayotgan katta-katta maq-
sadlarga erishishning asosiy
omili, bosh kalitini, avvalo,
ta'limda, maktablarimizda, deb
bilamiz.

So'nggi yillarda o'quvchi
yoshlarimiz hurmatli ustoz va
murabbiylari bilan birgalikda ana
shunday yuksak e'tiborni chuqur
his etib, o'qishda, ijodda,
sportda, jamoat ishlarida muhim
g'alabalarni qo'lga kiritayot-
gani bizga albatta qo'shimcha
kuch-g'ayrat, ilhom va ishonch
bag'ishlaydi.

Ko'plab maktab bitiruvchi-
lari mamlakatimizdagi nufuzli
oliy o'quv yurtlari bilan birga
xorijdagi yetakchi universitet-
larga yuqori ball bilan o'qishga
kirayotgani, hayotda munosib
o'rinni topib, Yangi O'zbekis-
ton taraqqiyotiga ulkan hissa
qo'shayotgani hayotimizda mak-
tabning, ustoz-murabbiylarning
ahamiyati yanada ortib borayot-
ganini ko'rsatadi.

Ishonchim komil, siz, azizlar
ana shunday ezgu an'analarni
munosib davom ettirasiz va yuk-
sak bosqichga ko'tarasiz.

Hech qachon unutmang,
maktab – bu mo'jiza, kitob,
ustozlar o'tadigan har bir dars –
beqiyos xazinadir.

Oldingizga aniq maqsad
qo'yib, bor kuch-g'ayratingiz,
bilim va qobiliyatingiz bilan
harakat qilsangiz, ko'zlagan
marralarga albatta yetasiz.

Bu yo'lda sizlarga sihat-salo-
matlik, yutuq va zafarlar tilay-
man.

Yangi o'quv yili barchangizga
muborak bo'lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

**Bu so'zlar keyingi paytlarda, ya'ni
Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi
arafasida quloqlarga tez-tez chalinib
turdi va yurtini sevgan har bir inson
borki, yuragigacha yetib bordi.
Samarqand shahridagi "Mo'jiza"
amfiteatrda sana munosabati bilan
o'tkazilgan viloyatning asosiy bayram
tadbiri ham ushbu shior ostida
o'tkazildi.**

Tadbirida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi
Adiz Boboyev ishtirok etib, yig'ilganlarni bayram
bilan qutladi.

Taraqqiyotning navbatdagi bosqichida
Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida amalga
oshirilayotgan islohotlar yurtimiz iqtisodiyoti-
ning rivoji, xalqimiz turmush darajasining
oshishiga xizmat qilmoqda, - dedi viloyat
rahbari. - O'zbekistonning xalqaro maydonda,
ichki siyosatda erishayotgan natijalarini viloya-
timiz misolida ham ko'rish mumkin. Hududda
tegishli dasturlarning samarali amalga oshi-
rilishi tufayli 2025-yilning o'tgan davrida yalpi
hududiy mahsulot 50,7 trillion so'mni tashkil
etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7
foizga o'sdi. Hududiy korxonalar tomonidan
xorijsa 619,3 million dollar qiymatidagi mahsu-
lotlar eksport qilindi. Yil boshidan buyon 340 ta
yangi sanoat korxonasi tashkil etilib, ularning
umumiy soni 9156 taga yetdi. Bu korxonalar
tomonidan qariyb 30 trillion so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilib, 385 million dollarlik eksport
amalga oshirildi.

- Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillig-
ini ko'tarinki ruhda qarshi olaypmiz, - deydi

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!



urgutlik tadbirkor Qodirbek Usmonov. – Keyingi
yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar
xalqimizni xursand qilyapti. Ayniqsa, tumani-
mizga temiryo'lining kirib kelishi alohida ahami-
yatga ega. Urgutga poezdlarning qatnashi
xayolimizga ham kelmagandi. Bu tuman ahli va
biz kabi tadbirkorlarning og'irini yengil, uzog'ini

yaqin qiladi.

Tadbir bayramona bezatilgan sahnada yosh
iste'dodlar – harbiylar, sportchilar, teatr aktyor-
lari, taniqli san'atkorlarning chiqishlari bilan
davom etdi.

**To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**



Andrea Bocelli

Registonda kuyladi

**1-sentabr kuni oqshom Samarqand
shahridagi Registon maydonida ilk bor
dunyoga mashhur italiyalik tenor –
Andrea Bocelli jonli ijroda kuyladi.**

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'atni
rivojlantirish jamg'armasi tomonidan O'zbekiston
Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston Milliy banki
hamda "O'zsanoatqurilishbank" ko'magida tashkil
etilgan konsert dasturini tomosha qilish uchun na-
faqat yurtdoshlarimiz, balki xorijdan ham mehmon-
lar, ayni paytda mamlakatimizda bo'lgan sayyohlar
Samarqandga tashrif buyurdi.

Andrea Bocelli italyan vokal an'analarining tim-
soli sifatida butun dunyoda tan olingan. U o'z faoliyati
davomida 90 milliondan ortiq audiodiyozuv sotgan, 6
marta Gremmi va 6 marta Latin Grammy mukofotlariga
sazovor bo'lgan. U dunyodagi eng nufuzli san'at an-
jumanlarida, davlat rahbarlari ishtirokidagi tadbirlarda,
Olimpiya o'yinlari, jahon ko'rgazmalari va yirik xalqaro
madaniy forumlarda chiqish qilgan.

U 2011-yilda Andrea Bocelli jamg'armasiga
asos solgan. Mazkur jamg'armaning asosiy maqsadi
dunyo bo'ylab madaniy-gumanitar tashabbuslarni
qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Samarqanddagi
konsert dasturi ham ana shu missiyaning bir bo'laki
hisoblanib, O'zbekiston bilan xalqaro hamjamiyat
o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkam-
lashga xizmat qiladi.

Konsertda jahonning yetakchi opera xonandalar-
dan biri – Aida Garifullina maxsus mehmon sifatida
ishtirok etdi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy simfo-
nik orkestri va mamlakatning yetakchi xor jamoalari
qatnashdi.

Tashkilotchilarning ta'kidlashicha, Andrea Bocelli-
ning Registon maydonidagi konserti mamlakatimiz
madaniy hayotida muhim voqea bo'lib, O'zbekistonda
amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalarning muvaffaqi-
yati sifatida talqin etiladi va yurtimizda madaniy turizm-
ni rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Yangi o'quv yili boshlandi

**Kecha, 2-sentabr
kuni viloyatdagi
barcha umumta'lim
maktablarida "Vatan
uchun, millat uchun,
xalq uchun" shiori
ostida "Birinci
qo'ng'iroq" tadbirlari
bo'lib o'tdi.
Yangi o'quv yilida
viloyat bo'yicha
87 ming 380 nafar
bola 1-sinfga qabul
qilindi.**



Samarqand
shahridagi 43-umum-
ta'lim maktabida
o'tkazilgan tadbirida
viloyat hokimi vazifasini
bajaruvchi Adiz Bobo-
yev ishtirok etdi.

Viloyat rahbari
o'quvchi va o'qitu-
vchilarni Mustaqilligimizning 34 yilligi va
yangi o'quv yili bilan tabriklab, birinchi sinf-
ga qadam qo'ygan bolajonlarga "Prezident
sovg'asi"ni topshirdi.

- Maktabimizda 1630 nafar o'quvchi
ta'lim olmoqda, - deydi 43-maktab direktori
o'rinbosari Farangiz Do'stmurodova. - Ular-
ga 76 nafar malakali o'qituvchi ta'lim-tarbiya
berib kelyapti. O'tgan o'quv yilida makta-
bimizni 70 nafar o'quvchi bitirgan bo'lsa,
ularning 30 nafari oliy o'quv yurtlariga
o'qishga kirdi. Joriy o'quv yilida esa 140 na-
fardan ziyod o'quvchi 1-sinfga qabul qilindi.

Shuningdek, yangi o'quv yilida viloyatda
sakkizta yangi maktab, jumladan, Paxtachida
49-, Ishtixonda 96-, Past Darg'omda 130-,
Nuroboda 79-, Urgutda 159-, Qo'shrabotda
90- va Kattaqo'rg'on tumanida 52-, 86-mak-
tablar faoliyat boshladi. Bu yangi maktablarda
jami 3114 ta o'quvchi o'rni yaratildi.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasining ma'lumotiga ko'ra, hozirgi
kunda viloyatda 1272 ta umumta'lim mak-
tabi, 18 ta ixtisoslashtirilgan maktab, bitta
Prezident maktabi hamda 46 ta nodavlat
ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
tegishli buyrug'i bilan akademik litseylarning
barcha bosqich o'quvchilari va oliy ta'lim
muassasalarining 1-bosqich talabalari uchun
dars jarayonlari 2025-yil 3-sentabrdan, oliy
ta'lim tashkilotlarining 2- va undan yuqori
bosqich talabalari uchun 8-sentabrdan
boshlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida birinchi
bosqichga qabul qilingan talabalar uchun
"Kredit ta'limi tizimiga kirish" haftaligi ham-
da "Talabalikka bag'ishlov" tadbirlari tashkil
etiladi.

X.ERNAZAROVA.



Ibrat

Tadbirkor Ilhom Rustamov o'zi tahsil olgan Samarqand
shahridagi 52-umumta'lim maktabi uchun 540 o'rinni qo'shimcha
o'quv binosi qurib berdi.

Shuningdek, tadbirkor maktabning 960 o'rinni eski binosini
ham ta'mirlashga ko'maklashdi. Ilhom Rustamov bundan avval
Samarqand shahri, Bulung'ur va Ishtixon tumanlarida o'z
mablag'lari hisobidan maktablar qurib borgan edi.

Oziq-ovqat eksportini ko'paytirish

imkoniyatlarimiz bor

Davlat rahbari ishtirokida o'tkazilgan ayni mavzudagi yig'ilishdan so'ng viloyatdagi holat ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Shu ma'noda mutasaddi idoralardan tegishli ma'lumotlarni olib, o'rganib ko'rdik. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 57,4 trillion so'mni tashkil qilgan. Joriy yilda bu ko'rsatkichni 63 trillion so'mga yetkazish prognoz qilingan.



Bunda fermer xo'jaliklari tomonidan 52,8 ming gektar asosiy maydonlarda bahorgi ekinlar ekilganini alohida ta'kidlash o'rinli. Xususan, 23,1 ming gektar sabzavot, 21 ming gektar kartoshka, 6,8 ming gektar moyli, 2,6 ming gektar dukkakli, 1,6 ming gektar poliz ekinlari ekilgan.

G'alladan bo'shagan 90,6 ming gektar maydonda takroriy ekinlar joylashtirilgan. Jumladan, 10 ming gektar kartoshka, 11,9 ming gektar sabzavot, 35,9 ming gektar dukkakli, 6 ming gektar moyli hamda 26,8 ming gektar ozuqa ekinlari ekilgan.

Faqat takroriy ekinlarning o'zidan 500,5 ming tonna hosil olinishi kutilmoqda. Uning 59,5 ming tonnasi eksportga, 332,8 ming tonnasi ichki iste'molga yo'naltiriladi.

Umuman, viloyatda mavjud 4 million 297,5 ming nafardan ko'proq aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga talabi ortig'i bilan qoplanadi. Misol uchun, kartoshka 1 million tonna (talabga nisbatan 474 foiz), sabzavot 1,6 million tonna (363 foiz), meva 417 ming tonna (127 foiz), uzum 692 ming tonna (923 foiz), poliz 176 ming tonna (229 foiz) yetishtiriladi. Shuningdek, 337 ming tonna go'sht (182 foiz), 1,5 million tonna sut (300 foiz) hamda 46,9 ming tonna o'simlik yog'i (107 foiz) tayyorlanadi.

Davlatimiz rahbari ishtirokidagi yig'ilishda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Ma'lum qilinishicha, viloyatimizda bu borada ham muayyan ishlar amalga oshirilmogda. Masalan, ayni paytda viloyatimizda qayta ishlovchi korxonalar soni 221 tani, quvvati 1,2 million tonna va qayta ishlash darajasi 33 foiz (2017-yilda 12 foiz)ni tashkil qiladi. Qayta ishlash darajasini yil yakunigacha 36 foizga yetkazish chora-tadbirlari belgilangan.

Shuningdek, 271 ta saqlash quvvatlariga 208,5 ming tonna mahsulotlarni joylashtirish mumkin.

Mavjud 12 ta agrologistika markazlari 270 ming tonna quvvatga ega. Joriy yilda Samarqand tumani Gulobod qo'rg'onida 3 gektar maydonda 90 ming tonna quvvatga ega agrologistika markazi ishga tushirilib, 25 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Davlat rahbari tomonidan berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash - bozorlarimizni yanada to'kin qilish, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat yaratishni kengaytirish hamda eksport ko'rsatkichlarini oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Gap undan unumli foydalanishda qolmoqda.

Maryam NIYOZOVA
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Samarqand shahrining alohida ahamiyatga ega markaziy ko'chalari hamda tarixiy osori-atiqalari joylashgan hududlarga olib boruvchi yo'nalishlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini sifatli amalga oshirish maqsadida viloyat hokimligi huzurida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish departamenti tashkil etilganiga ikki oydan oshib qoldi.

Shahrimiz qancha ko'rkam va obod bo'lsa, uning jozibadorligi ham oshib boraveradi

Vazirlar Mahkamasining "Samarqand shahrini obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan viloyat hokimligi huzurida tashkil etilgan mazkur departament oldiga katta vazifalar qo'yilgan.

Shahrimizda o'tkazilayotgan xalqaro darajadagi tadbirlarda markaziy ko'chalari, tarixiy obidalar joylashgan hududlarga olib boruvchi yo'nalishlarda obodonlashtirish ishlarini tashkil etyapmiz, - deydi viloyat hokimligi huzuridagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish departamenti direktori Baxtiyor Jo'rayev. - Shu vaqtgacha ushbu vazifani bajarib kelgan Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasidagi maxsus texnikalar eskirib qolganligi, obodonlashtirish hududining kengayib, qo'shimcha maxsus texnika va ishchi-xodimlar jalb etilayotgani sababli ularga yuklangan vazifalar lozim darajada bajarilmay qolayotgan edi. Natijada sohada ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlash tizimini joriy etish zarurati yuzaga keldi. Shahar obodonlashtirish boshqarmasidan 35 ta maxsus texnika 754 nafar ishchi-xodimlar yangi departamentga o'tkazildi.

Viloyat hokimi qarori bilan yangi departamentga shahardagi 21 ta ko'cha va hududlar birlashtirilgan bo'lib, departament ishchilari tomonidan katta hajmdagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Samarqand xalqaro Turizm markazi va Imom Buxoriy majmuasiga olib boruvchi ko'chalarda viola, geran, katarantus kabi o'nga yaqin manzarali gullardan 332 ming dona ekildi. Landshaft dizayni asosida o'nga yaqin gulzorlar tashkil etilib, mavjud yashil hududlar kengaytirildi. Yo'l bo'ylari obodonlashtirilib, 182 ta manzarali chiroqlar o'rnatildi. Shuningdek, Registon maydoni, Bibixonim, Amir Temur majmualari va boshqa tarixiy obidalar joylashgan mahallalar atrofida estetik muhit yaratish maqsadida maxsus bezak elementlari va yashil zonalar tashkil etildi.

Mustaqillik bayrami arafasida tashkilot ishchilari zimmasidagi yumushlar juda ko'paygan. Bayram tadbirlari o'tadigan maydonlarga turli ko'rgazmali buta va gul ko'chatlari



o'tqazish, ariq va lotoklar, yo'l yoqalarini maishiy chiqindilardan tozalash kabi ishlar amalga oshirilmogda.

- Qilayotgan ishlarimiz kundan-kunga soni oshib borayotgan rasmiy mehmon va sayyohlarning ko'z o'ngida Samarqand shahrining turistik jozibadorligini oshirish, tarixiy obidalarning asl holida saqlanib qolishiga olib keladi, - deydi Baxtiyor Jo'rayev. - Shuningdek, tarixiy merosimizni asrab-avaylash hamda aholiga qulay va zamonaviy shahar muhitini yaratishga xizmat qilmoqda.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligiga



Samarqand – Qarshi yo'lidan borarkansiz, Samarqand tumanidan chiqib, Nurobod hududiga kirishingiz bilan bepoyon dasht, kengliklarga ko'zingiz tushadi. Har-har joyda uzoqda qoramtir bo'lib ko'rinib turganlar qo'y podasi. Keyin Sazag'on harbiy dala o'quv mashg'ulot maydoni ko'zga tashlanadi. Shu tarzda 20-30 kilometr yo'l yurib, ayrim siyrak qishloqlarni aytmaganda, dasht oralab ketaverasiz.



Yo'g'-e, bunaqa joy yo'q, deysizmi? To'g'ri. Ta'riflaganimiz bundan yetti-sakkiz yil oldingi manzara, boringki, o'n yillar oldin ushbu yo'ldan o'tganingizda ko'rgan-kechirganlaringiz shunday bo'lardi.

2017-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Urgut" erkin iqtisodiy sanoat zonasi tashkil etilishi va mazkur sanoat zonasi uchun Urgutdan tashqari Nurobod tumani-dagi Sazag'on massividan foydalanilmay turgan 137 gektar yer maydoni ajratilishi ana shu cho'l, dasht hududga sanoat kirib kelishiga asos bo'ldi. Keyin Tapaqul mahallasidan ham 40 gektar yer ajratildi.

Sanoatni kim yaratadi? Inson. Inson qadami yetgan joy esa, agar hafsala qilinsa, yerga mehr berilsa, obod bo'ladi, bog'u bo'stonga aylanadi. Bugun azaldan bog'dorchilik, sabzavotchilik rivojlangan Samarqand tumanidagi yashillik o'sha katta yo'ldan Nurobod hududiga o'tishingiz bilan dashtliklarga ham ko'chgani, bir-biridan ulkan sanoat korxonalari atrofi obodlikka yuz tutganiga guvoh bo'lasiz.

"NUROBOD TEXNOPARKI" MAXSUS SANOAT ZONASI TASHKIL ETILADI
Albatta, shu paytgacha na yo'li va na suv, elektr, qazi bo'lgan hududda bo'sh maydonni tadbirkorga ajratib bergan bilan

sanoat yaratilmaydi, zavod-fabrika bino bo'lib qolmaydi. Bunday joyga investor-kadam bosmaydi, hatto o'zimizning tadbirkorlar ham pul tikmaydi-da. Shuning uchun davlat muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari yaratib berishni o'z zimmasiga oldi. Dasht hududda raven yo'llar ochildi, elektr, gaz tarmoqlari tortildi, suv chiqarildi. Sharoit yaratilgach, ish oldinga ketdi. Birin-ketin yangi korxonalar ochildi, qo'shma korxonalar tashkil etildi. Xorijiy davlatlardagi yirik kompaniyalar, yirik sarmoyadorlar investitsiya kiritishdan cho'chimadi. Hozirda bu yerda o'ndan ortiq yirik korxonalar faoliyat ko'rsatib, import o'rnini bosuvchi, eksport-bop mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Ayni paytda esa armatura va boshqa metal mahsulotlar tayyorlovchi "PLATINUM METAL INDUSTRY", yuk tashuvchi avtomobillar uchun ustqurma va yordamchi elementlar tayyorlovchi "DAO HU QI CHE", dolomit va marmar toshni mineralarga boyituvchi "EX-POIMPO" korxonalari ish boshlash arafasida turibdi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 4-avgustdagi qaroriga ko'ra, Sazag'on massivida bo'sh turgan 115,3 gektar yer maydonida "Nurobod texnoparki" maxsus sanoat zonasi tashkil etiladi.

Shuningdek, qaror bilan Nurobod

INVESTORLAR

tumanida investitsiya muhitini yanada yaxshilash va sanoatni rivojlantirishning 2025–2030-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi. Jumladan, yuqori texnologiyali zamonaviy va sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga jami 1,1 milliard AQSh dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish orqali 5,1 ming doimiy ish o'rnini yaratiladi.

– Mazkur sanoat zonasi Xitoyning "Xinjiang Urumchi New Vision Investment Development Co., Ltd" kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilmogda, – deydi viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sherov Sobirov. – Bu yerda 2025-2029-yillarda elektrotexnika, bioorganik o'g'itlar, tekstil, qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlarda umumiy qiymati 472 million AQSh dollari bo'lgan 20 dan ortiq loyiha amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish binolari ko'p qavatli, ya'ni 3-4 qavat qilib quriladi. Bu yer maydonidan hamda kommunikatsiya tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Maxsus sanoat zonasini boshqarish uchun "New Vision Investment Development" MChJ xorijiy kompaniyasi tashkil etildi.

Shu paytgacha Xitoy kompaniyasi rahbarlari bilan bir necha marta muloqotlar o'tkazib, investitsiya loyihalarini muhokama qildik, vazifalarni belgilab oldik. Yaqinda o'tkazilgan uchrashuvimizda maxsus sanoat zonasida shamol elektr stansiyasi tashkil etish loyihasini muhokama qildik. Muzokaralar davomida mutaxassislar bilan loyiha uchun qulay joyni aniqlash, qurilish va texnik bosqichlarni belgilashga kelishib, infratuzilma va texnik imkoniyatlar bo'yicha dastlabki tahlillarni amalga oshirdik.

SAMARQANDGA YEVROPALIK INVESTORLAR QIZIQISH BILDIRMOQDA

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda viloyatda 3,6 milliard dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish belgilangan. Yilning birinchi yarmida 1 milliard 87 million, shundan hududiy loyihalarda 669,6 million, tarmoq loyihalarini hisobiga 417,2 million AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 foizga ko'p demakdir.

– Davlatlar kesimida tahlil qilinganda,

investitsiyalarning salmoqli qismi Xitoy (381,6 million dollar), BAA (37,1 million dollar), Ozarbayjon (25,9 million dollar), Turkiya (20,1 million dollar) hissasiga to'g'ri kelmoqda, - deydi Sherov Sobirov. – Misol uchun, Samarqand shahrida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda "Azia Metall Prof" qo'shma korxonasida umumiy qiymati 143 million dollar bo'lgan po'lat eritish, maishiy texnika va avtomashinalar uchun tunuka list, rux va polimer qoplamali tunuka ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan hududiy investitsiya dasturiga ko'ra, 2025-yilda qiymati 1 milliard 632 million dollarlik 834 ta loyiha ishga tushirilib, 23,3 mingdan ortiq ish o'rnini tashkil etiladi. Shu asosida birinchi yarim yillikda qiymati 199,2 million dollarlik 332 ta loyiha ishga tushirilib, 3870 ta ish o'rnini ochildi va belgilangan reja 171 foizga bajarildi. Misol uchun, Samarqand tumanidagi "Marjona Diyor Tekstil" MChJ negizida zamonaviy xususiy institut hamda savdo kompleksi tashkil etish loyihasi doirasida 10,5 million AQSh dollari o'zlashtirilib, 200 ta yangi ish o'rnini yaratishga erishildi. Loyihalarning salmoqli qismi yilning ikkinchi yarmiga mo'ljallangan va albatta, belgilangan ko'rsatkichga erishiladi.

Viloyatga sarmoya jalb qilishda xorijiy davlatlarga tashriflar hamda chet ellik investorlarni yurtimizga taklif qilish, birgalikda biznes forumlar o'tkazish muhim

omil bo'lmoqda. Birgina shu yilning o'zida viloyat hokimligiga 56 davlatdan 170 dan ortiq xorijiy kompaniya vakillari kelib, hudud rahlarlari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Bu uchrashuvlarda jami 4,6 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borildi. Viloyat rasmiylari va tadbirkorlardan iborat delegatsiyalarning Xitoy, Malayziya, Indoneziya, Quvayt va Fransiyaga xizmat safarlari davomida 1,2 milliard dollarlik 97 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.

– Keyingi yillarda Yevropa davlatlaridagi kompaniya va tadbirkorlarning Samarqandga qiziqishi ortib bormogda, - deydi Sherov Sobirov. – Ayniqsa, viloyatimiz hokimi boshchiligidagi Fransiya va Italiyaga amalga oshirilgan xizmat safarlari davomida hududlar rahbarlari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar, o'tkazilgan taqdimotlar samarasida bir qator kompaniyalar Samarqandga investitsiya kiritish istagini bildirdi. Bundan tashqari, yaqinda viloyatimiz delegatsiyasi Yaponiya tomoni taklifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldik. Samarqand viloyati va Nara perefekturasi o'rtasida yo'lga qo'yilgan birodarlik aloqalari tufayli ushbu hudud rahbariyati biz bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, safarimiz davomida Osakadagi xalqaro ko'rgazmada qatnashib, Samarqandning iqtisodiy imkoniyatlari va investitsiyaviy jozibadorligi to'g'risida taqdimotlar o'tkazdik.



XXI asrda tashkilotlar raqobatbardoshligini saqlab qolishda inson resurslarini boshqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, globallashuv va ish kuchi tarkibining o'zgaruvi bu sohada yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy boshqaruv uslublari bugungi shiddatli zamon talablariga javob bermaydi. Endi inson resurslari faqat kadrlar bo'limi vazifasini emas, balki strategik rejalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va korporativ madaniyatni shakllantirishni ham o'z zimmasiga olmoqda.

Zamonaviy yondashuvlardan biri — kompetensiyalarga asoslangan boshqaruv. Bu modelda xodimlar bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini asosida tanlanadi va rivojlantiriladi. Bu esa ularning rolini aniq belgilashga va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman, avvallari davlat ta'lim standartida bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash nazarda tutilardi. Endi esa kompetensiya - egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qo'shildi. Ya'ni, endi sifat rahbarlar va davlat xizmatchilarining kompetentligiga bog'liq.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda: masalan, sun'iy idrok asosida xodimlar tanlovini avtomatlashtirish, masofaviy ishlashni boshqarish platformalari, virtual treninglar va progressni kuzatish tizimlari. Bu yondashuv inson omilini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat — xodimlarning tajribasi. Xodimlar o'zlarini qadrlangan, eshitilgan va o'sishga yo'naltirilgan muhitda his qilishlari kerak. Bu ularning sodiqligini oshiradi.

Mazkur masalalarda xorijda yaxshigina tajriba bo'plangan. Misol uchun, Google kompaniyasi xodimlarning erkinligi va ijodkorligini rag'batlantirish orqali innovat-

Professional va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuv inson resurslarini rivojlantirish omili

sion g'oyalarga zamin yaratadi. Shvesiya-da esa davlat sektori ham inson resurslari strategiyalarini raqamlashtirib, natijalarga yo'naltirilgan tizimga o'tgan.

Yangi O'zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak», degan yuksak g'oyaga asoslangan holda amalga oshirilishi innovatsion taraqqiyot uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, har bir davlat xizmatchisidan tafakkur tarzini yuksaltirib borishi, eng muhimi, xalq ishonchini qozonishi ham faoliyatida samaradorlik va natijadorlikning ta'minlanishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

«O'zbekiston-2030» strategiyasiga muvofiq davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

Shu asosda joriy yil 19-iyunda Prezidentimizning "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari, davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini joriy etish, sohani tubdan isloh qilish, davlat xizmatida korruptsiyaga qarshi kurashish va raqamlashtirish, davlat xizmatining imini yaxshilash hamda davlat xizmatchilari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish

va tashkiliy chora-tadbirlar belgilab berildi.

Farmonga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchilari xizmat vazifalarini bajarishda odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etishini ta'minlash va kasbiy madaniyatini rivojlantirish orqali davlat organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash mexanizmlari joriy qilinadi.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi, strategiyaning maqsadli ko'rsatkichlari, strategiyani amalga oshirish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi, davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxati, respublika, hududiy va tuman darajasidagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri, milliy darajadagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida nizom, milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida nizom, davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tartibi to'g'risida nizom, davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda oshirish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Joriy yil 1-avgustdan boshlab respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi tashkilotlardagi lavozimlarning boshqaruv va yordamchi guruhlar uchun tanlovlar faqatgina Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali orqali o'tkazilishi belgilandi.

Bundan tashqari, 1-avgustdan boshlab davlat organlari va tashkilotlarida har ish kunining muayyan vaqtlarida jismoniy tarbiya va harakat faolligi bo'yicha tadbirlar o'tkazib boriladigan bo'ldi.

Joriy yil 1-oktabrdan esa davlat xizmatchilarining xorijiy va ichki xizmat safarlarini tashkil etish, hisobini yuritish va tahlilini olib borish "hrm.argos.uz" elektron tizimi tarkibidagi "Xizmat safari" yagona moduli orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuziladi va keyinchalik faoliyatining ijobiy natijalariga ko'ra mehnat shartnomasi



nomuayyan muddatga uzaytiriladi;

davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari majburiy "Davlat xizmatiga kirish" maxsus kurslarini va keyinchalik har uch yilda kamida bir marotaba malaka oshirish kurslarini o'taydi hamda mazkur kurslarning yakunlari bo'yicha ularning nazariy bilim va ko'nikmalari diagnostikadan o'tkaziladi;

davlat xizmatchilari yiliga kamida bir marta tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi tashkil-

lashtiriladi;

hokimliklarda o'zlariga tegishli bo'lgan oshxonalar to'liq outsorsing asosida tashkil etiladi, ularda sog'lom ovqatlanish keng joriy qilinadi hamda shirinliklar, yog'li, xamir solingan oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar, shuningdek, odam sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa turdagi mahsulotlarning savdosi cheklanishi belgilangan.

Bundan tashqari, viloyat, tuman va shahar hokimliklari tomonidan yil davomida erishilgan natijalar, sohada fuqarolarga yaratilayotgan qulayliklar hamda kelgusidagi vazifalarning interaktiv tarzda keng jamoatchilikka yetkazilishi, eng namunalidir davlat xizmatchilari faoliyati, davlat xizmatchilarining bir kuni to'g'risida videorolik va filmlar namoyishi o'tkazilishi ta'minlanadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida davlat xizmatchilarining oila a'zolari uchun "Oila kuni" tadbirlari tashkil etiladi.

Farmon bilan davlat fuqarolik xizmatida

yagona lavozimlar reestri va ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, mehnatga haq to'lash tizimi ham isloh qilinadi. Ya'ni, xodimlarning ish haqi ularning malakasi, tajribasi va xizmat samaradorligi asosida belgilanadi. Bunday yondashuv kadrlar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi hamda korruptsiya holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Farmonning joriy yil 1-noyabrga qadar davlat xizmatchilariga, istisno tariqasida bir marta, ular egallab turgan lavozimiga muvofiq, biroq ularning mavjud maxsus unvonlardan (martaba yoki malaka darajalari) past bo'lmagan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari berilishi belgilangan.

Davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrda lavozim guruhi, lavozim toifasi, lavozim malaka darajalarining berilishi davlat fuqarolik xizmatchilarining malaka darajalari orqali oylik ish haqlari oshish imkonini beradi. Aynan «mansab» va «martaba» tushunchalarining farqli jihatlari bor. Davlat fuqarolik xizmatchilari jamiyat va xalq ishonchini qozonish, og'irini yengil qilish, xalqqa xizmat qilish masalalarida ma'lum bir martaba «imij»ni ko'tarish maqsadlariga erishiladi. Shu nuqtai nazardan malaka darajalari tizimining afzalligi ilmga asoslangan boshqaruv tizimining rivojlantirishiga zamin yaratadi.

Shaxriyor XOLBAYEV,
Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.

SAMARQANDGA INTILMOQDA



Viloyatimiz hokimi ko'plab tadbirkorlar, yirik kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashdi. Bu muloqotlar natijasida umumiy qiymati 280 million dollarlik loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlar imzolandi. Yaqin kunlarda Yaponiya tomoni javob tashrifi bilan Samarqandga kelishi va kelishuvlarni mustahkamlash kutilmoqda. Ushbu safar davomida Koreya respublikasining Seul, Pusan shaharlari va Chxunchxon-pukto provinsiyasida ham samarali uchrashuvlar o'tkazildi. Seulda biznes-forum tashkil etildi. Bu safar davomida ham 200 million dollarlik memorandumlar imzolandi.

EKSPORT 1 MILLIARD DOLLARGA YETKAZILADI

Investitsiya loyihalari bilan tanishish jarayonida shunga amin bo'ldikki, xorijlik tadbirkorlar va yirik kompaniyalar Samarqandda asosan zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish, maishiy texnika vositalari uchun butlovchi buyumlar tayyorlash yo'nalishlariga sarmoya kiritish niyatida ekan. Chunki viloyatga import qilinayotgan tovarlarning asosiy qismi ushbu yo'nalishlarga tegishli. Albatta, bunday yondashuv viloyatda import o'rnini bosuvchi va eksportbop

mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'z navbatida viloyatning eksport salohiyatini oshirish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabrda qabul qilgan 2025-yil davlat eksport hajmini 850 million AQSh dollariga yetkazish belgilangan. Bunda eksportning salmoqli qismi (617,7 million dollar)ni sanoat mahsulotlari tashkil qilishi e'tiborli. Chunki yaqin yillargacha nafaqat Samarqand, umuman, yurtimizdan xorijga asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport qilingan. Mamlakatimizda sanoatni jadal rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tarmoqning davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi natijasida bugun eksport qilinayotgan tovarlar tarkibida sanoat mahsulotlari asosiy o'rinni egallamoqda.

Viloyatda joriy yilning yanvar-iyun oylari uchun 328,9 million dollar eksport prognozi belgilangan bo'lib, amalda 462,9 million dollar qiymatidagi mahsulotlar xorijga sotilgan. 480 ta korxona tomonidan jami 738 turdagi mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan. Mas'ullarning aytishicha, yil yakunigacha viloyatning eksport ko'rsatkichini 1 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan.

G'olib HASANOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Chorshanbayev Shuxrat Qaxramanovichga (2025-yil 17-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Maxmudova Raxila Narzullayevnaga (2024-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Yusupov Sadrididdin Sharipovichga (2025-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Ibragimov Askar Axtamovichga (2021-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ayubova Muyasarga (1996-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Demidov Konstantin Anatolevichga (2025-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Abdurashidov Sanjar Abdudzovichga (2017-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Djaborov Shodmon Sabirovichga (2022-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Tulanov Kobilga (2024-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

BEKOR QILINADI

O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Paxtachi tumani hududiy bo'linmasining (STIR: 207266505) Samarqand viloyati adliya boshqarmasidan 2021-yil 5-oktabrda 308p-son bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi va Nizomining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "MURODOVA MASTURA BOLTAQULOVNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 300787112) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Adabiy til yozma shaklining me'yorlashuvi, barqaror orfografik ifodalanishi va takomillashuvida imlo qoidalari muhim rol o'ynaydi. 1995-yil 24-avgustda 82 banddan iborat "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" qabul qilingan va bugungi kungacha o'zbek tili yozma nutqining imloviy barqarorlashuviga xizmat qilib kelmoqda. Ammo o'tgan o'ttiz yillik davr mobaynida hozirgi o'zbek adabiy tili bir qator yangi so'z va istilohlar bilan boyidi, o'zining tarixiy ildiziga qayta tutashdi, kirill va lotin yozuvining amaldagi qo'llanilish auditoriyasi aniq chegaralarga taqsimlandi.

2023-yil 1-yanvardan e'tiboran davlat tilining yozma shakli barcha vazirlik, tashkilot, korxona va muassasalarda o'zbek lotin alifbosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Shundan kelib chiqib, amaldagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ni yanada mukammallashtirish zarurati ham paydo bo'ldi. Ularning munozarali o'rinlari quyidagilardan iborat:

1. Unli tovushlar imlosida hozirgi o'zbek adabiy tiliga singib ketgan o'zlashma, aniqrog'i, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar imlosiga chuqurroq to'xtalib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, **o** harfi *ona, osmon, quyosh, fido, baho, xola, lotin, mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yozilishi amaldagi imlo qoidalarida qayd etilgan, ammo o'zlashma so'zlar tarkibidagi **o** unlisi urg'u olishi yoki olmasligi, shuningdek, urg'usiz bo'g'in tarkibida kelgandagi **a**, kuchsiz **i** va urg'uli bo'g'inida **o'** ga monand tarzda talaffuz qilinishiga orfoepik jihatdan baho berilmagan. Vaholanki, har qanday orfografik me'yorlar orfoepiyani chetlab o'tmasligi zarur. Negaki so'z o'zlashma bo'lsa-da, uni talaffuz etuvchi artikulyatsion baza – nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi nutq a'zolarining holati va harakati majmuyining milliyligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarurati bor. Umumiste'moldagi adabiy tilimizda keng qo'llaniladigan o'zlashma so'zlar tarkibidagi **o** unlisini orfoepik va orfografik qoidalariga tayanib, uch guruhga quyidagicha taqsimlab keltirish, bizningcha o'rinni sanaladi:

a) *modal, model, modern, monarx* kabi so'zlardagi **o** harfi **a** tarzida, ya'ni old qator, quyi keng unli sifatida talaffuz qilinada, orqa qator keng unli – **o** tarzida yoziladi, urg'u olmaydi;

b) *traktor, direktor, rektor, sektor* kabi so'zlarda kuchsiz **i**, ya'ni old qator, yuqori tor unli sifatida talaffuz qilinsada, orqa qator, quyi keng unli – **o** tarzida yoziladi, urg'u olmaydi;

d) *nol, tonna, rol* kabi so'zlarda o'zbek tilidagi **o'** unlisiga yaqin tarzda, ya'ni orqa qator, o'rta keng unli sifatida talaffuz qilinsada, **o** tarzida yoziladi, birdan ortiq bo'g'inli so'zlar tarkibida kelganda urg'u oladi.

2. Imlo qoidalaridagi **ng** harflar birikmasiga oid ma'lumotni yanada kengaytirish zarurati mavjud, chunki bu harfiy birikma imlo me'yorlarimizda batafsil izohlanmagan. Mazkur harfiy birikmaga doir quyidagi mulohazalarni keltirish ehtiyoji mavjud:

a) *ko'ngil(ot), dengiz, singil, tan-ga(pul), tong; keng, yangi; ming; yengil, keling, bording* kabi so'zlarda bir butunlikdagi til orqa, ovozdor, burun tovushini ifodalash uchun yoziladi;

b) *menga, senga, tanga, tungi, ko'ngil(fe'l), yongan, tingan* kabi so'zlarda asosning **n** tovushi bilan tugashi va unga qo'shilayotgan qo'shimchaning **g** tovushi bilan boshlanishi kuzatilgani uchun **n** va **g** grafemalari alohida mustaqil tovush sanalib, **ng** harfiy birikmasi hisoblanmaydi;

d) *gangrena, lingafon, kongress, shanga, tango, tangens* kabi o'zlashma so'zlarda bitta **ng** harfiy birikmasini emas, mustaqil holdagi **n** va **g** harflarini ifodalaydi.

3. O'zbek tiliga asosan, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda ishlatiladigan tutuq belgisi – ' o'zbek adabiy tilida uch xil vazifani bajaradi, ammo bu vazifalarning uchinchisi hozirgi imlo qoidamizda aks etmagan:

a) *a'lo, a'zo, ba'zan, ma'no, ma'yus, ra'no, e'lon, ne'mat, she'r, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin kelib, shu

“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni mukammallashtirish kerak



unlini cho'zib talaffuz qilishni ifodalaydi;

b) *in'om, san'at, sur'at, tal'at, qat'i'y, qit'a, mas'ul, jur'at* kabi o'zlashma so'zlarda unidan oldin kelib, shu unlini undoshdan ajratib talaffuz qilishni ifodalaydi;

d) *Is'hoq, mas'h, mus'haf* kabi o'zlashma so'zlarda yonma-yon kelgan **s** va **h** undoshlarining alohida-alohida mustaqil tovush ekanligini ifodalaydi.

4. Asos va qo'shimchalar imlosida *ball, metall, kongress, gramm* kabi oxiri bir xil ikkita undosh (qo'sh undosh) bilan tugagan o'zlashma so'zlar imlosi aniq yechim bilan yoritilmagan. Ayrim darsliklarda bunday so'zlarga oxirgi undosh bilan bir xil bo'lgan qo'shimcha qo'shil-sa, bir undosh tushib qolishi va shunday yozilishi ta'kidlangan: *ball+lar=ballar, metal+li=metalli, kongress+siz=kongress-siz, gramm+mi=grammi* kabi, ammo shu leksemalarga ot va otlashgan so'zlarga qo'shiluvchi egalik qo'shimchalari (*-im, -imiz, -ing, -ingiz, -i*)ning qo'shilishi holati mavhumligicha qolgan. Natijada aniq me'yorning yo'qligi tufayli ikki xil variantlik holatlari kelib chiqmoqda. Bizningcha oxirgi bo'g'in bir xil qo'sh undosh bilan tugagan o'zlashma so'zlar imlosi va talaffuzini ham milliy artikulyatsiyamizga mos tarzda qayta ishlab chiqish mumkin. Bunday so'zlar uchun bosh va oraliq shakl me'yorini qabul qilish ayni muddao-dir. Unga ko'ra, bosh shakl hech qanday qo'shimchalarsiz (*bunga qo'shimchalarining belgisiz ishlatilishi holatlari ham kira-di*) qo'llanishi holati: *ball, metall, gramm, kongress* kabilar taalluqli bo'lsa, oraliq shakliga esa har qanday qo'shimchalar bilan shakllanishi mansub bo'ladi: *ballar, balga, baling, metallar, metalga, gramdan* kabilar. Natijada bu so'zlarni jumla tarkibi-da quyidagicha qo'llash mumkin: *75,6 ball o'tish bali hisoblanadi; 100 ballik tizimda 81 balni qo'lga kiritdi; bir yil davomida jarima ballari 12 balga yetgan haydovchi kamida 6 oyga haydovchilik huquqidan mahrum qilinadi; kimyoviy ishllov berishda 200 gramm rangli metalning 0,02 grami kulga aylandi; bu muammoni milliy kongressiz bitirib bo'lmaydi, shuning uchun kongressga murojaat qiling.*

4. Qo'shib yozish imlosida *rang* so'zi yordamida yasalgan qo'shma sifatlarning qo'shib yozilishi ta'kidlangan. Shunga asoslanib, *jigarrang, kulrang, bug'doy-rang, binafsharang, yalpozrang, feruzarang, osmonrang, muzrang, sopolrang, loyrang* so'zlarini amalda qo'shib yozamiz, ammo so'z *yasalishi* hodisasi jamiyatning nifololog qatlamiga tanish emasligi inobatga olinmagan, natijada *oq rang, qora rang, qizil rang, sariq rang, ko'k rang, yashil rang, pushti rang* kabi birliklarning yozilish me'yorini mavhumligicha qolgan. Agar qo'shma so'zning dastlabki qismi *ot* turkumiga mansub bo'lsa, qo'shib yozish, *sifat* turkumiga mansub bo'lsa, ajratib yozish, shuningdek, ularning biri qo'shma so'z, ikkinchisi birikma ekanligiga ahamiyat qaratish zarur.

5. Bosh harflar imlosida har 73-bandning eslatmasidagi 2-qoida berilishida punktuatsion ishora *tire* (–) bilan orfografik belgi *chiziqcha – defis* (-)ni chalkashtirish holati uchraydi.

6. O'zbek kirill alifbosidagi **ë, ю, я** harflarining lotin yozuvida aks etishini yanada

mukammallashtirish, bir xil qoliplantirish zarurati mavjud. Negaki bu tovushlarning ikki xil variantlashuvi ruscha va baynalmilal so'zlarda namoyon bo'lib, ularni o'zbek lotin alifbosidagi yozilishini har xil talqin etishga olib keldi. Buning natijasida *oktabr - oktyabr, sentabr - sentyabr, sujet - syujet, stajor - stajyor* kabi keraksiz variantdosh so'zlar paydo bo'lmoqda. Bu kabi grafik dubletlarning, ayniqsa, maktab darsliklarida aniq yechim bilan berilmasligi o'quvchilarda darsliklarga nisbatan ishonchsizlik uyg'otishi kuzatilmoqda. Bunday ikki ko'rinishli harfiy holatlar ruscha va baynalmilal so'zlarning milliy artikulyatsiyamizga emas, o'zga til va killarining artikulyatsiyasiga tayanish zamirida paydo bo'lgan:

“1. **ë, ю, я** ikki tovush (**y+unl**)ni ifodalashga xizmat qilsa, bu harflar o'rniga **yo, yu, ya** harflari yoziladi: *заём – zayom, юмор – yumor, ядро – yadro, ёмфир – yomfir, ютук – yutuk, яхши – yaxshi* kabi.

2. **ë, ю, я** harflari o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko'rsatishga xizmat qilsa:

1) asosan, **ë** harfi o'rniga **o** harfi, **ю** harfi o'rniga **u** harfi, **я** harfi o'rniga **a** harfi yoziladi: *стажёр – stajor, люстра – lustra, флагя – flaga* kabi;

2) so'zning talaffuzi keskin o'zgarib ketmasligi uchun qisman **ë** harfi o'rniga **yo** harflari, **ю** harfi o'rniga **yu** harflari, **я** harfi o'rniga **ya** harflari yoziladi: *актёр – aktyor, бюро – byuro, снаряд – snaryad* kabi ”. [4.15-16]

Ko'rinadiki, o'zbek kirill alifbosidagi **ë, ю, я** harflarining o'zbek lotin yozuvida ikki xil variantlashuvi “**o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko'rsatishga xizmat qilganligi**” holatini inobatga olish natijasida paydo bo'lgan. Bu qarash o'zbek tilining milliy imlo qoidalariga begona bo'lib, o'zga tillarning, aniqrog'i, rus tili vakillarining artikulyatsion bazasiga nisbatan ishlab chiqilgan. Buning yechimi esa o'zbek tilining xalqona artikulyatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Bizningcha ushbu munozarali holatning to'g'ri va jo'yali yechimi *E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev va Y.R.Odiolov*larning 2023-yilda hammualliflikda chop etilgan “O'zbek tilining katta imlo lug'ati”da quyidagicha berilgan:

“Rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida **ë, ю, я** harflari bo'lgan ruscha va baynalmilal so'zlarni yangi imlodagi **yo, yu, ya** harflari bilan yozishni va shu orqali bu sohada har xillikni bartaraf etishni eng maqbul yo'l deb (*lug'at tuzuvchilar*) hisoblaydilar va ushbu lug'atda shunday yo'l tutadilar”. [1.21-22] Demak, yangi imlo qoidalarida ruscha va baynalmilal so'zlar tarkibidagi **ë, ю, я** harflari milliy talaffuz me'yorlariga tayanilib, **yo, yu, ya** tarzida ifodalanishi to'g'ri sanaladi.

7. Mualliflar jamoasining bu taklifi-ni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda kirill alifbosidagi **ë** harfining ham o'zbek lotin alifbosida aks etishiga doir mukammal variantni targ'ib etishini kutib qolamiz. Chunki **ü (ts)** harfi bilan bog'liq chalkashliklar ham yozma nutqimizda tez-tez kuzatilib turadi. Masalan, *sellofan, ssenariy* kabi so'z boshida keladigan o'rnlarda **s** shaklida, so'z tarkibidagi ikki unli orasida kelganida (*publitsistika,*

Aytmasak bo'lmaydi



dissertatsiya, konstitutsiya) **ts** holatida, so'z oxirida unidan keyin kelganda (*shprints*) **ts** tarzida, undosh va unli oralig'ida kelganda (*auksion, aksiya, ensiklopediya*) **s** shaklida yozilishi haqidagi qoidani asosiy imlo me'yorimizga kiritish mumkin.

8. Imlo qoidalarining 77-band 2-qismi-da o'zlashma so'zlarning qatordan qatorga bo'g'inga ajratib ko'chirilishi haqida quyidagi qoida keltirilgan:

Uch undosh (bo'g'inlar chegarasi-da) kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: sillin-drik kabi. Bizningcha bu bandga qo'shimcha kiritilib, **trans-port** so'zi bundan mustasno deyilishi o'rindir.

9. Kirill yozuvidagi adabiyotlar va ulardan olingan ko'chirmalarning hozirgi o'zbek lotin alifbosida yozilgan manbalardagi ifodasini bir xil qoliplantirish ehtiyoji mavjud. Bu boradagi muammo asosan ikki xil ko'rinishda uchraydi:

a) bir matndan ikkinchi matnga muayyan fikrni dalillash, isbotlash yoki inkor qilish maqsadida olib kiritilgan parcha – iqtibosning aniq imloviy me'yori mavjud emasligi. Buning natijasida kirill alifbosida yozilgan manbadan lotin alifbosidagi tadqiqot, darslik va qo'llanmalarga iqtibos olinganda matnning axborot ulashuvchi asosiy qismida ikki xil yozuv ko'rinishi hosil bo'ladi. Bunda asosiy matn lotin alifbosida, iqtibos sifatidagi parcha esa kirill alifbosida yoziladi. Masalan, *E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev va Y.R.Odiolov*larning 2023-yilda chop etilgan “O'zbek tilining katta imlo lug'ati”dagi “*Ayrim so'zlarning yozilishi bo'yicha lug'at tuzuvchilarning tavsiyalari*” maqolasida ham lotin yozuvidagi matnga kirill yozuvidagi iqtibosni kiritish holati uchraydi. [2.20]

Bizningcha, jamiyatimizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish bosqichi yakunlanar ekan, kirill yozuvidagi o'zbekcha matndan lotin yozuvidagi o'zbekcha matnga ko'chirma olinsa, iqtibos sifatida olingan qism lotincha berilib, uning manbasi sahifa pastiga kirill yozuvi(yoki manbaning garafikasi)da rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq. Negaki lotin yozuvidagi matnda kirill yozuvidagi iqtibosning keltirilishi yozma nutqdagi adresant va adresatga noqulaylik tug'dirishi bilan birga estetik jozibadorlikni ham yo'qotadi.

b) hozirgi o'zbek lotin alifbosidagi matnda kirill yozuvida yaratilgan adabiyotlar nomlari aynan kirill yozuvida berilishi holatlari uchraydi. Bu holatni so'nggi yillarda yozilayotgan tadqiqot va adabiyotlarda kuzatish mumkin. Masalan, *E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev va Y.R.Odiolov*larning 2023-yilda chop etilgan “O'zbek tilining katta imlo lug'ati”da 5 jildli “*Ўзбек тилининг изоҳли луг'ати*” hamda 12 jildli “*Ўзбекистон миллий энциклопедияси*” nomlari shu tarzda qayd etilgan.[2.4]

Bizningcha, bu borada ham aniq bir to'xtamga kelinib, kirill yozuvida yozilgan badiiy, ilmiy asarlar, umuman, adabiyotlar nomlari lotin yozuvidagi o'zbekcha matnlarga olib kirilganda aynan lotincha yozilishi, adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda esa aslyatdagi yozuvda ifodalanishi maqsadga muvofiq. Negaki yuqoridagi kabi holatlar kirill yozuvining lotin yozuviga asoslangan milliy o'zbek yozuvidan chiqib ketishini susaytirmoqda.

Xullas, “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni mukammallashtirishni, uning xato va kamchiliklardan xoli, barqaror tizimlanishini orfografik me'yorni orfoepiya, fonetika, fonologiya, morfonologiya, leksikologiya, morfologiya, punktuatsiya va aksiologiya bilan uzviy bog'liqlikda yanada takomillashtirish o'zbek ilm-faniga, noshirlik faoliyatiga, vazirlik, korxona va tashkilotlarning ish yurituviga bir qator qulayliklar tuhfa etadi, milliy savodxonligimizni yangi, takomillashgan bosqichga olib chiqadi. Lotin yozuvidagi o'zbek alifbosi mukammallashtirilgan ekan, bevosita uning imlo qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish ham dolzarblik kasb etadi. Zero, yozuvda imlo qoidalaridan to'g'ri va o'rinni foydalovchi nafaqat yozuv egasining, balki butun bir millatning saviyasi, yozuv madaniyatini namoyon etadi.

Komil QARSHIYEV, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.



Ashratxona

sayyohlik maskaniga aylandi

Mustaqilligimizning 34 yilligi arafasida Samarqand shahridagi Sulton Hovand Beka - Ashratxona maqbarasida konservatsiya va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.



Ma'lumotlarga ko'ra, inshoot temuriy sulton Abu Said (1451-1469-yillar) hukmronligi davrida, taxminan 1464-yilda Bog'i Feruzaning burchak qismida sevimli rafiqasi Habiba Sultonbegim va qiziga (manbalarda qizining ismi Hovand Beka deb keltirilgan) atab pishiq g'ishtdan qurilgan. Maqbara binosining tashqi tomoni mozaikalar bilan qoplangan, ichki tomoni zarhal va tilla suvi yuritilgan badiiy bezaklar bilan bezatilgan.

Samarqand mintaqaviy restavratsiya markazi direktori Bahrillo Abdullayevning ta'kidlashicha, keyingi yillarda ta'mirlab holatga kelib qolgan majmuaning qurilish-ta'mirlash ishlari uchun viloyat prokuratura-si tomonidan 200 million so'mdan ziyod mablag' ajratilib, sayyohlar boradigan diqqatga sazovor maskanga aylantirilgan. Shuningdek, ayni paytda shahardagi Registon, Qozi G'ofur, Xo'ja Said Ahmad kabi madaniy meros obyektlarida ham konservatsiya va restavratsiya ishlari davom etmoqda.



Majmuaning ochilish tadbirida “O'zbekiston bo'ylab sayohat qili!” dasturi doirasida ichki turizm yarmarkasi tashkil etildi.

Yarmarkada respublikamizning turli hududlaridan kelgan sayyohlik firmalari, turizm sohasida faoliyat yurituvchi turoperatorlar, turagentlar, joylashtirish vositalari (mehmonxona, hostel, mehmon uyi) vakillari ichki turizm bo'yicha imkoniyatlarini namoyish etdi.



Yarmarka yakunida faol ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

B.MUSTANOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 788 nusxada chop etildi. Buyurtma 413. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'OLONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 6-sentabr, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda